

## DALACHOY O'SIMLIGI VA UNING TURLARINI O'RGANISH, HUPERICUM SCABRUM L DAG'AL DALACHOY" O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI

**Qobulova Maftuna Asliddin qizi**  
**Fayziyeva Marjona Amrulloeva**  
**Sobirova Muqaddas Batirovna**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali*

**Anatatsiya:** *Dalachoy va uning turlarining tarqalishi hamda ishlatilish sohalari tog'risida qisqacha tavsif. Teshik dalachoy - Hypericum Perforatum L. va dog'li (to'rt qirrali) dalachoy - Hypericum maculatum Crantz. (Hypericum quadrangulum L.): dalachoydoshlar - Hypericaceae oilasiga kiradi. Dag'al dalachoy o'simligi (Hypericum scabrum L) botanik xususiyatlari*

**Kalit so'zlar:** *Hypericum scabrum L, Hypericum Perforatum L, Hypericum maculatum, Hypericum quadrangulum L, Hypericaceae.*

O'rta Osiyo, Kavkaz va Oltoyda o'sadigan dalachoyning turi - dag'al dalachoy (*Hypericum scabrum L.*) O'zbekistonning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tog'li tumanlaridagi tog'larning tog' oldi qismidan to o'rta qismigacha bo'lgan yumshoq toshli va shag'alli tog' qiyalarida, ochiq, tekis va boshqa yerlarda keng tarqalgan. Dalachoyning bu turi teshik dalachoydan bo'yining pastligi (20-50 sm), poyasining pastki qismi qizg'ish-binafsha rangli va odatda bir nechta bo'lishi, bargining mayda (uzunligi 10-15 mm), barg qo'ltig'idan qisqargan (1-4 sm) shoxchalar o'sib chiqqanligi hamda sariq gullarining qalqonsimon ro'vakka to'planganligi bilan farq qiladi.[1]

Dag'al dalachoy may-iyul oylarida gullaydi, iyun-avgustda mevasi etiladi. Xalq meditsinasida dalachoy dimlamasi buyrak, qovuq, meda-ichak kasalliklarini davolashda ishlatilgan. Abu Ali ibn Sino bu o'simlikdan siydik haydovchi dori sifatida foydalangan.[4]

Geografik tarqalishi. Dalachoy turlari yo'l yoqalarida, ariq bo'ylarida, o'tloqlarda, bedazorlarda, o'rmonlarda, o'rmon chetlarida, butalar orasida o'sadi. Asosan Ukraina, Belarus, Moldova, Boltiq bo'yi davlatlari, Rossiyaning Yevropa qismi va g'arbiy Sibirning o'rmon, o'rmon-cho'l zonasida, Kavkazda hamda O'rta Osiyoda uchraydi.[1]

Kimyoviy tarkibi. Mahsulot tarkibida 10-12,8% oshlovchi moddalar, 0,1 -0,4% atratsen unumlari (giperitsin, psevdogiperitsin va boshqalar), flavonoidlar (giperozid, rutin, kversitrin, izokversitrin, kversetin, miritsetin va boshqalar), 0,1-0,33% efir moyi, 55 mg % karotin, 1151,8 mg % vitamin S, 34 mg % xolin, juda oz midorda alkaloidlar va 10% gacha smola bo'ladi.

Ishlatilishi. Mahsulotning dorivor preparatlari burishtiruvchi, antiseptik va yara to'qimalarini tez bitiruvchi ta'sirga ega. Tibbiyotda me'da-ichak (kolit, ich ketishi), og'iz

bo'shlig'i (gingivit va stomatit) kasalliklari hamda II va III darajali kuyishlarni davolashda, shuningdek, og'izni chayish uchun ishlatiladi.

O'simlikning yer ustki qismi bakteritsid ta'sirga ega.[1]

#### **DALACHOY QAYNATMASINING FOYDALARI**

– asablarni tinchlantirib, psixologik buzilishlarning oldini olishda qo'l keladi;  
– stressdan chiqishda, stress ta'siridagi uyqu buzilishlarini yaxshilashda yordamlashib, uyqusizlikni yo'qotadi;

– teri hujayralarini tiklashga yordam beradi, yuz va teridagi husnbuzarlardan qolgan dog'larni ketkazishda ham qo'l keladi:

– tanadagi mikroba va bakteriyalarga qarshi kurashib, tanada uchraydigan turli yallig'lanishlarning yo'qolishini ta'minlaydi;

– hazm tizimini me'yorga solib, ishtahani ochishda yordamlashadi;

– qalqonsimon bez gormonlarini me'yorga soladi;

– dalachoy tabiiy og'riq qoldiruvchi vazifasini ham bajaradi. Mushaklar og'rig'ini qoldiradi;

– saraton hujayralarining ko'payib ketmasligini ta'minlaydi;

– gripp va shamollashda balg'am tez ajralishiga yordam beradi;

– bosh og'rig'ini pasaytirib, isitma tushirishda qo'l keladi.

#### **QUYIDAGI HOLATLARDA TAVSIYA ETILMAYDI**

– homilador va homiladorlikka yaqin turgan ayollarga;

– diqqat yetishmasligidan aziyat chekadigan, haddan tashqari harakatchan bo'lgan, shizofreniyaga chalingan insonlar, shuningdek, Alsgeymer (xotira yo'qolishi) kasalligi mavjud insonlarga;

– depressiyaga qarshi dorilar, qonni suyultiruvchi, astmani davolaydigan dorilar ichayotgan odamlarga;

– behushlikka olib boradigan jarrohlik amaliyotlaridan ikki hafta oldin choyni ichishni to'xtatish kerak.

Choyni tanaffussiz va aytilgan muddatdan ko'p ichish bosh og'rig'i, aylanishi, holsizlik, ko'ngil aynishi, og'iz qurishi, terida toshmalarni paydo qilishi mumkin. [4]

#### **XULOSA**

Adabiyotlardan o'rganishlarimiz natijasida dag'al dalachoy yer ustki qismining kimyoviy tarkibi va uning farmakologik ta'siri hamda klinika sharoitida kasalliklarni davolash xossalari chuqur o'rganildi. Natijada dag'al dalachoy yer ustki qismi tarkibida teshik dalachoy yer ustki qismi tarkibida uchraydigan kimyoviy birikmalar borligi, oshqozon-ichak, og'iz bo'shlig'i hamda yaralarni va kuygan yerlarni davolash xususiyati bir xil ekanligi aniqlandi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi [Matn]: darslik / O'.Axmedov [va boshqalar.]. - Toshkent : Shafolat Nur Fayz, 2020.
2. Dorivor o'simliklar florasi va sistemikasi fanidan amaliy mashg'ulotlar. Uslubiy qo'llanma. Guliston: GulDU nashri, 2021. Tuzuvchi: B.f.n., dotsent L.A.Botirova, o'qituvchi D.Tagayeva
3. "Dorivor o'simliklar resursshunosligi" fanidan "Farmatsiya" va "Kasb ta'lim" yo'nalishlari 5 kurs talabalari uchun Ma'ruzalar matni Toshkent-2014 Tuzuvchilar: Ibragimov A.Y. - f.f.d., professor, Komilov X.M.-f.f.d., professor, Muxamedova M.SH. - f.f.n., dotsent, Xodjaeva M.A. - f.f.n., dotsent, Farmonova N.T. - f.f.n., dotsent
4. <https://kun.uz/uz/58959952>
5. <http://https://shifo.uz/article/dalachoy-haqida>